




2-bosqich 1-semestr.
7-mavzu: Xamsa “Hayrat ul-abror”
dostoni



TILAME



Adabiyot


Abdukadirova M. M.



TILAME


Reja:

- 1.”Hayrat ul-abror” dostoni haqida.
2. Hayrat ul-abror” ning g‘oyaviy mavzulari.
- 3.Dostonning janr xususiyati va tuzilishi.
4. Dostondagi falsafiy, ijtimoiy masalalar.
5. Dostondagi axloqiy-ta’limiy masalalar.
6. Hayrat ul-abror” dagi obrazlar.



Kun
hikmati

**Turk nazmida men tortib chu alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.**







«Hayratul-abror»da hamd, munojot, na't, hayrat boblaridan keyin shoirning Yaratganga, borliqqa, tabiatga, insonga bo'lgan falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, ma'rifiy, axloqiy va estetik munosabati aks ettirilgan. Podshoh bilan ulusning insonlik nuqtai nazaridan ayirmasiz, farqsizligini, podshohning hunar, axloq, adl, insof, mantiq, taqvo yo'lida ulusdan o'ta olmaganini anglatish bilan o'ziningadolatli shoh haqidagi qarashlarini anglatadi.

Asarning g`oyaviy – badiiy mundarijasi.


- «Hayratul abror» Navoiy «Xamsa»sining 1-dostoni. Professor N.Mallayevning fikricha bu doston 7976 misradan iborat. Dostonning tuzilishi ham o`ziga xos. Dostonning asosini 64 bob tashkil etadi. Dostonning 21-bobi muqaddima, 20-bobi maqolatlar, 20-bobi turli mazmundagi hikoyatlar, masallar, 3-bobi - xotimadan iborat.



- Navoiy «Hayratul - abror»da yashagan davrining ijtimoiy-siyosiy masalalariga keng o'r'in beradi. Shoir turli tabaqa kishilariga munosabat bildiradi. Asardagi ko'pgina hikoyatlar orqali o'z mulohazalarini bayon etadi. Navoiy asarlarida podsholarga alohida e'tibor beradi. Odil shohlar, zolim,adolatsiz podsholar haqida gapiradi. Asarning uchinchi bobbi «Salotin bobida...» deb nomlanadi.



- «Hayratul abror», «Xamsa»dagi boshqa dostonlardan farqli tarzda asosan Navoiyning falsafiy-ta`limiy qarashlarini ifodalaydi. Doston masnaviy yo'lida yozilgan bo'lib, lirik ifoda bilan epik tasvir uyg'unlashib ketadi. Dostonning asosini 20 maqolat tashkil etadi. Asarning 3 kompozisiya zanjiri mavjud.
- **Dostonning umumiy kompozisiyasi.**
- **Maqolatlar kompozisiyasi.**
- **Hikoyat va masallar kompozisiyasi.**



- «**Hayratul-abror»ning 19 maqolatiga ilova etilgan hikoyatda ham hukmdor obrazi ko'tarilgan. Hikoyat avvalida Bahromning shohlik burch-vazifalarini unutib, ayshishratga berilishi, undan «cibrat» olgan amaldorlarning esa mulkni vayron etishi haqida so'z boradi. Hikoyatda tasvirlanishicha, Bahrom ovda adashib bir kapaga kelib qoladi. Kapa egasi yeyish, ichish, kiyishiga narsasi qolmagan qashshoq kishi. Kapa sohibi shohni tanimay amaldorlar zulmini nafrat bilan gapiradi.**





TILAME

T/R	Maqolatlar	Hikoyatlar
1.	Iymon sharhida	Shayx Boyazid Bistomiy va uning muridi haqidagi hikoyat
2.	Islom bobida	Ibrohim Adham va Robiya Adaviya haqidagi hikoyat
3.	Salotin zikrida	Shoh G‘oziy hikoyati
4.	Xirqa kiygan riyokor shayxlar xususida	Abdulla Ansoriy haqidagi hikoyat
5.	Karam vasfida	Hotami Toyi hikoyati
6.	Adablilik to‘g‘risida	No‘siravon va Nargis haqidagi hikoyat
7.	Qanoat bobida	Qanoatli va qanoatsiz do‘stlar haqidagi hikoyat
8.	Vafo bobida	Ikki vafoli yor hikoyati
9.	Ishq o‘ti ta`rifida	Shayx Iroqiy haqidagi hikoyat
10.	Rostliq ta`rifida	Sher bilan durroj hikoyati



TILAME

11.	Ilm osmonining yulduzlardek balandligi haqida	Imom Roziy va Xorazmshoh haqidagi hikoyat
12.	Qalam va qalam ahllari haqida	Yoqut haqidagi hikoyat
13.	Bulutdek foyda keltiruvchi odamlar haqida	Ayyub va o‘g‘ri haqidagi hikoyat
14.	Osmon tuzilishidan shikoyat	Iskandar haqidagi hikoyat
15.	Jaholat mayining quyqasini ichadiganlar haqida	Isroiliy ring haqidagi hikoyat
16.	Xunasasifat oliftalar haqida	Abdulloh Muborak haqidagi hikoyat
17.	Bahor yigitligining sofligi haqida	Zaynobiddin va uning o‘g‘li haqidagi hikoyat
18.	Falak g‘amxonasi haqida	Go‘zal malika va uning oshig‘i haqidagi hikoyat
19.	Xurosonning misli yo‘q viloyati bayonida	Bahrom va bog‘ haqidagi hikoyat
20.	Maqsadning o‘talgani haqida	Xoja Muhammad Porso haqidagi hikoyat



TIIAME

- Navoiy «Hayratul-abror»da badiiy til unsurlaridan keng foydalanadi. Dostonda hikmatli so'zlar, xalq maqollari, xalq ijodining boshqa turlari ko'p uchraydi.
- Tor ini sichqonga solib erdi g'am,
- Tuyruqiga bog'ladi g'irbol ham.
- Doston masnaviy yo'lida yozilgan.



TILAME

- Dostonning bosh qahramoni.
- Maqolatlardagi tavsiyiy obrazlar-portret va xarakterlar.
- Hikoyat va masallardagi obrazlar.
- Dostonning bosh qahramoni - A.Navoiy. Professor A.Hayitmetov «Hayratul abror»ni «Xamsa»ning program qismi deb ta`kidlaydi. «Hayratul abror»da A.Navoiy insonning xudo oldidagi, jamiyat oldidagi burchini, vazifalarini tushuntirishga harakat qiladi.




TILAME



**ALISHER NAVOIY
HAYRAT UL-ABROR
UZBEK MULTFILM**




ТИПАМЕ



АЛИШЕР НАВОЙЙ ҲАЙРАТ-УЛ АБРОР

Аъзамхон Қозихўжа
“Ҳайрат-ул абров” ҳайратлари



www.kh-davron.uz







TIAME





TIIAME

Savol va topshiriqlar:

- ▶ 1. «Sher bilan Durroj» hikoyatining g‘oyaviy mazmuni haqida so‘zlang.
- ▶ 2. Shoir nega aynan shu hikoyani o‘ninch maqolatga kiritgan?
- ▶ 3. Sher majoziy obrazida qanday insonlarga xos jihatlar mujassamlashgan? Durrojda-chi?
- ▶ 4. Ahil yashash, qo‘sningchilik munosabatlari haqida o‘z tushunchalariningizni so‘zlang.
- ▶ 5. Qanday illatlar Durrojni fojiaga olib keldi va nima uchun do‘sti yordamga kelmadи?
- ▶ 6. Do‘stlik, xayrixohlik, loqayd bo‘lmaslik kabi tushunchalarni hikoyat hamda hayotiy misollar asosida izohlang.
- ▶ 7. Rostlik, to‘g‘rilik fazilatlarining insonlar uchun ahamiyatini qanday tushunasiz?
- ▶ 8. Rost so‘z, to‘g‘ri yashash haqidagi g‘oyalarning ilgari surilgan yana qanday asarlarni bilasiz?



TIIAME

Mavzu bo'yicha testlar.

- 1. Navoiyning "Hayrat ul-abror"i aruzning qaysi bahrida yozilgan?
 - a) rajaz b) sari c) hazaj d) mutaqorib
- 2. Jon eng aziz narsa bo'lsa-da, umrni undan ham aziz ko'rgan shoir kim?
 - A) Bobur B) Navoiy C) Huvaydo D) Mashrab
- 3. So'zda, Navoiy, ne desang chin degil, Rost navo nag'maga tahsin degil" bayti
 - Navoiyning qaysi asaridan olingan?
- A) "Lison ut-tayr" B)"Mahbub ul-qulub" C) Hayrat ul-abror" D)"Farhod va Shirin"
- 4. Sher bilan durroj hikoyati "Hayrat ul-abror"ning qaysi maqolotida berilgan?
 - a) Adablilik to'g'risida b) Rostliq ta`rifida c) Karam vafida D) Qanoat bobida



Uyga vazifa “Hayrat ul-abror” dostonidagi hikoyatlarni
o‘qish. Dostondagi obrazlarga tavsif berish.